O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Uzun tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 7-uy, 191100, tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 3 - oktabr 398-8-118-Q/22 Uzun tuman hokimligi

Tuman hokimining 2022 yil 13-sentabrdagi 373-8-118-Q/22-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida.

Tuman hokimining 2022 yil 13-sentabrdagi 373-8-118-Q/22-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tuman hokimining 2022 yil 13-sentabrdagi 373-8-118-Q/22-sonli qarorining 3-bandi “2023-yilda Uzun tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha korxona va tashkilotlar kesimida ish o‘rinlarini tashkil etish ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.” deb o‘qilsin.

2. Mazkur qarorning 5-bandi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarorni bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinishi belgilansin.” deb o‘qilsin.

3. Ushbu qarorning 6-bandi “Ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga

(ro‘yxat raqami 3163, 31.05.2019-yil) asosan belgilangan tartibda kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslar uchun har bir xodimga 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi belgilab qo‘yilsin.” deb o‘qilsin.

4. Qarorning qolgan qismi o‘zgarishsiz qoldirilsin.

5.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

Hokim **B.B.Tursunov**